

HUJJATCHILIK TARIXI VA SHARQ HUJJATCHILIGI

Hakimova Farida Ilhom qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Asadova Muxlisa Abdilaxat qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti talabasi

Egamova Uldona Nabijon qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti talabasi

Аннотасија: Ushbu maqolada Yozuv va uning kelib chiqishi, Hujjatchilik tarixi va hujjatlarning turlari rivoji haqida so'z boradi. Maqola hujjatchilikning qadimiy davrlarda, ayniqsa, Misr, Mesopotomiya, Hindiston va Xitoyda qanday shakllanganligi, hujjatlarning davlat boshqaruvida, uning huquqiy tizimi va siyosatini rasmiylashtirishdagi o'rni qanday bo'lganligi haqida so'z yuritiladi.

Калит со'злар: Yozuvning paydo bo'lishi, yozuvning ahamiyati, yozuv turlari, qadimgi yozuvlar, hujjatchilik, arxiv, arxivshunoslik, hujjat turlari.

Аннотация: В этой статье обсуждаются письменность и ее происхождение, документальная история и развитие типов документов. В статье говорится о том, как формировалась документация в древние времена, особенно в Египте, Месопотамии, Индии и Китае, и какую роль документы играли в правовом и политическом оформлении государственного управления.

Ключевые слова: Возникновение письменность, значение письменность, веды письменности, древние письменна, документация, архивоведение, развитие дошкольников, виды документов.

Abstract:This article deals with writing and its origin, documentary history and development of document types. The article talks about how documentation was formed in ancient times, especially in Egypt, Mesopotamia, India and China, the role of documents in public administration, legal systems and policy formalization.

Key words:The emergence of writing, the importance of writing, types of writing, ancient writing documentation, archival studies, types of documents.

Jamiyatni tilsiz, tilni esa insoniyat jamiyatidan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Til insoniyat rivojining ilk bosqichlaridan biri hisoblanib, insonlar o'rtasida o'zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Til orqali inson jonzoatlardan ajralib turadi. Til jamiyat rivojining ilk bosqichini boshlab bergan desak hech yanglishmaymiz. Avval til, keyin jamiyat rivojlangan. Bu taraqqiyot jarayoni tufayli keyinchalik, yozuv, balki tilning lug'at boyligi ham ortib bordi. Bu jarayoni asrlar davomida amalga oshirib boruvchidir. Ushbu hodisani uzluksiz jarayon deb hisoblash mumkin. Ayniqsa buyuk siymolar Alisher Navoiy, Mahmud Koshqariy singari bobolarimiz eski turkiy tilning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Kishi o'z fikrini aniq va ravon ufodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuvlar tilidan tashqari rasmiy -ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunki oddiy ishchimi, dehqonni, tadbirkormi yoki ziyolimi, baribir hech bo'lmaganda, ariza, tilxat yoki ishonchnoma yozishga to'ri keladi. U yoki bu darajadagi korxonada, muassasa yoki tashkilot rahbarining faoliyatini tartibga solib turadi. Qadim sharq yorliqlarida o'ziga xos lisoniy qolip shakllangan, yorliqlar matn jihatidan an'anaviy tarkibiy qismlarga ega bo'lgan. Bu davr yodgorliklariga misol qilib "O'rxun -Enasoy" yodgorliklarini keltirib o'tish mumkin.

Aytish lozimki, yaqin o'tmishimizda barmoq bilan sanoqli miqdordagi hujjatlar o'zbek tilida yozilgan. Ammo bu hujjatlarning tilini sof o'zbecha deb aytish qiyin. Umuman, o'zbek hujjatchiligining boy va uzoq tariximizga ilk bosqichlaridan ibtido olgan an'anasi mavjud bo'lsada, oktabr to'ntarishidan keyin boshqa joylarida

bo'lgani kabi jumhuriyatimizda hujjatchilik bevosita o'zbek tili negizida rivojlantirilmadi.

Barchaga ma'lumki har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur bu tildir. Ayni paytda hujjatchiligimizda til axborotni qayd etish vazifasinigina boyitib qolmasdan, boshqaruv faoliyatini izchil tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham avvola, o'z qadimiy an'analarimizdan kelib chiqqan va dunyo hujjatchiligidagi ilg'or tajribalardan ijodiy foydalangan holda, hujjatchiligimizni takomillashtirish yo'ldan barmoq kerak.

Yozuv insoniyatning eng katta ixtirosi hisoblanadi. Yozuvlar paydo bo'libdiki insoniyat o'zlarining olib borgan ilmiy ishlari, tajribalari, davlatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berib borish imkoniyatlarini qulga keritishdi. Yozuv madaniyati asosan tarixni saqlab qolishda, asosiy poydevor vositasini bajargan deb aytishimiz mumkin. Chunki o'sha yozuvlar tufayli biz avlodlarga ajdodlarimizdan allomalarimizdan qolgan ko'pgina asarlar, bitiklar, ularni jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar yitib kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi bilan davlatlar o'zaro yozma aloqalarha ham kerisha boshlagan. Shu sababli yozuvni biz insoniyatning sivilizatsining boshlanish nuqtasi

Tarixdan bilamizki yozuv milloddan avvalgi 4-ming yillikda Misopotomiyada paydo bo'lgan. Yozuv ilk bor hisob kitoblar hujjatlarni yuritishda foydalanilgan. Yozuvni kim kashf qilganligi haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Shu sababli yozuvni qadimgi davrlarda ilk bor shummerlar yaratgan. Shummerliklar mixxat deb nomlangan yozuvni ixtiro qilgan. Misrliklar esa ieroglif deb nomlangan yozuvni 3100-yilga kashf qilishgan. Shummerliklarning yozuvi hisob-kitobda ishlatilgan bolsa, Misrliklarning yozuvi hujjatlar va haykal toshlarga bitilgan o'lmas tarixni yaratishda eshlatilgan. Xitoyda esa ilk yozuvlar 1200-yilda paydo bo'lgan. Xitoyda yozuvni shang sulolasi yaratgan. Hindistonda yozuvning paydo bo'lishi haqida bir qator ma'limotlar mavjud bo'lib asosan Harappa madaniyatida 2600-yilda paydo

yno'lgan ekan. Hindistonda yana vedalar va Sanskrit tili ham rivojlangan. Yozuv insoniyat tarixida bilimni avlodan-avlodga yetkazish, davlatlarni boshqarish, ularning madaniyatini avlodlariga yozma tarzda yetkazish uchun ishlatilgan. Yozuvning ilk ko'rinishi rasm ko'rinishida bo'lgan. Odamlar rasm orqali hayotida bo'layotgan voqea hodisalarni tasvirlagan. Rivojlangan jamiyatda esa soddalashgan va harflardan iborat bo'lgan. Yozuvning bir qancha turlari mavjud bo'lsa-da, lekin ularning hammasi inson ihtiyojlaridan kelib chiqib yaratilgan.

Hujjatlar o'zining uzoq o'tmishiga ega. Yozuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hujjatchilik tarkib topa boshlagan. Kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq jamiyat azolari o'zaro munosabatlarida muayyan muhim holatlarni muntazam qayt etib borishga ihtiyoj sezganliklari bois ilmiy hujjatlar yuzaga kelgan. Hujjatchilik bu-hujjatlarni yaratish, tahlil qilish, to'plash, saqlash uni avlodan-avlodga o'tkazishdir. Hujjatchilik tarixiy, ilmiy, madaniy va yuridik sohalarda katta ahamiyatga ega.

Hujjatchilik tarixi va yozuvning paydo bo'lishi bilan o'zviy bog'liq. Hujjatni biz asosan davlat boshqaruvida va huquqiy munosabatlarni rasmiylashtirishda ishlatamiz. Hujjatchilik tarixi qadimgi davrlar bilan bog'liq bo'lib qadimdan podshohlar davlat boshqaruvini tartibga solishda, soliqlarni yig'ishda, boshqa davlatlar bilan savdo ayir boshlashda, aholini ruyxatga olishda muhim hisoblangan. Hujjatlar shaxsiy va jamoaviy turmush tarzining, davlat boshqaruvining va ijtimoiy tizimlarning ko'rsatgichi bo'lib xizmat qilgan. Hujjatchilik tarixining ilk bosqichi Misopotomiya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi davlatlarda qadimiy sivilizatsiyalarda vujudga kelgan. Qadimgi hujjatlarni insonlar loy taxtachalarga, toshlarga, papiruslarga yozishga. Bundan kelib chiqqan holda qadimiy davrlarda ham hujjatchilik bo'lgan faqat ular hozirgi davrdagi kabi zamonaviy qog'ozlarda yozishmaganlar.

Hujjatlar qadim zamonlardan beri olib borilgani ma'lum. Yozuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hujjatchilik rivojlana boshlagan, u kishilar o'rtasidagi muamolar, fikrlar almashuv va bir birini tushunish takomillashadi. Jamiyatning

taraqqiyoti hujjatchilik tizimida ham ma'lum o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Masalan: ibtidoiy tuzum davrida ham jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlardagi muhim holatlarini qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Tabiiyki, ehtiyoj natijasida o'sha tuzumga xos ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan. Olim E.K'era o'zining <<Oni pisali na gleni>> (M.1984) asarida Bobil (Vavilion) davlatida eramizdan avvalgi 1792-1750-yillarda hukmdorlik qilgan Hammurapi yaratgan qonunlar majmui (Kodeksi), undan ham qadimroq -2112-2094-yillarda hukmronlik qilgan Ur-Nammu chiqargan qonunlar haqida ma'lumot beradi. Davrlar o'tishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'zgargan, siyosiy munosabatlari takomillashgan. Shu bilan hujjatchilik takomillashib borgan.

Bugungi kunda fanda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lgan manbalar mavjud. Ular tariximizning turli davrlariga oid O'rxun – Enasoy (runik), so'g'd, eski uyg'ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan hujjatlar haqida ma'lumot beradi.

O'rta asrlarda hujjatlar ko'pincha monastirlarda, cherkovlarda va davlatni boshqarishda ishlatilgan. Bu davr hujjatlari yer, mulk va soliq, sud majburiyatlarida muhim hisoblangan. Tarixdan ma'lumki hujjatchilik tarixida bir qator inqilobiy o'zgarishlar bo'lib o'tgan masalan 15-16-asrlarda bosma matbaaning ixtiro qilinishi, kitoblarning massaviy ishlab chiqarilishi va keng tarqalishi hujjatchilikda yangi davr boshlandi. 18-19-asrlarda hujjatlarni tasdiqlash, ro'yxatga olish va arxivlash amaliyoti keng rivojlandi. Yangi davrlarga kelib esa hujjatlar kompyuter texnologiyalari orqali rivojlanmoqda. Hujjatlarni biz qog'oz ko'rinishi bilan bir qatorda elektronli variantini ham bugungi kunda ishlatamiz.

Kishilik jamiyati shakllanishi bilan jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlarida muhim holatlarini muntazam va qa'tiy qayd etib borishga ihtiyoj sizganlar. Ana shu ihtiyojlarlar tufayli odamlar o'zlarining ilk ibtidoiy hujjatlarini vujudga keltirganlar. Baholangki o'sha qadimgi hujjatlar tarkib topmaganda yoki hujjatchilik rivojlanmaganda bizning hujjatlarimiz hozirgi ko'rinishga kelmagan bo'larmidi. Hujjatchilik tarixi, insoniyatning taraqqiyoti va madaniyatini tushunishda

muhim o'rin tutadi. Hujjatlar bu nafaqat yozilgan so'zlar, balki insoniyatning o'tgan va hozirgi zamonidagi ijtimoiy hayoti urf-odatlarini, madaniyatini yozma tarzda ifodalaydigan narsa hisoblanadi.

Arxivshunoslik bu tarixiy ma'lumotlarni, hujjatlarni va ko'pgina yozma materiallarni, birorta davlat yoki shaxsga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tahlil qilish va tarqatish bilan shug'illanadigan soha hisoblanadi. Arxivshunoslik hujjatlarni saqlash va ularni tashkil etish, kelgusida foydalanish uchun asoslangan.

Arxivshunoslik arxivlar haqida fan bo'lib, arxiv ishining tarixi, arxiv faoliyatining maqsadi vazifalari va ularning davriga, maqsadlariga bog'liq xususiyatlari, hujjatlari tizimli komplektatsiya qilish tamoyillari, arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish masalalarini o'rganadi. Arxiv so'zining atamasiga kelsak bu lotincha so'zdan olingan bo'lib hukumat binosi so'zidan kelib chiqqan. Lekin arxiv atamasining hozirgi qo'llanishi ma'nosi birmuncha kengroq. "Arxiv to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunida "arxiv tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan;" Arxiv-arxiv hujjatlari majmui, shuningdek muassasa yoki korxonada, muassasa va tashkilotning arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va ulardan tarkibiy bo'linma deb ta'rif berilgan. Hujjatlash va arxivlash jarayonlari davrlar, vaqtlar o'tishi bilan juda ham takomillashib bordi, bugungi kunda ilmfan, ta'lim va boshqa sohalarda ahamiyatli vositalarga aylangan. Sharq hujjatchiligi esa o'zining xilma-xilligi va boy analari bilan insoniyat tarixining ajralmas qismiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.M. Jo'rayevaning "Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi amaliyoti va boshqaruvni meyoriy hujjatlar bilan ta'minlash". (7-bet)
2. Is'hoqov Mirsodiq Mirsultonovich, Alimova Rahima Riskulovna, "Arxivshunoslik". Oquv qo'llanma. T., 2017. 1-bo'lim, 7-8-bet.

Qo‘shimcha adabiyot:

3.М.Аминова,А.Мадалиев,Н.Махкамов,Н.Махмудов,Ү Одилов."Davlat tilida ish yuritish amaliy qo‘llanma".